

R. SHOMAHMUDOVA

TO‘G‘RI TALAFFUZGA O‘RGATISH VA NUTQ O‘STIRISH

Yordamchi maktablar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma

To‘ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining Respublika
ta’lim markazi nashrga tavsiya etgan*

Toshkent—«ILM ZIYO»—2013

UO'K 372.46

KRK 74 3 "g-71
Sh55

Deceptonued


Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqidagi nuqsonlarini bartaraf etish, to'g'ri talaffuzga o'rgatish va og'zaki nutqini o'stirishga mo'ljallangan.

Qo'llanmada sirg'aluvchi va shovqinli tovushlar (s, z, sh, j, ch) hamda sonor tovushlarni (*r-l*) to'g'ri talaffuz qilishga o'rganish bo'yicha ota-onalar, pedagoglar uchun metodik ko'rsatmalar berilgan. Shu bilan birga, bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatishga oid artikulatsion mashqlar va ushbu mashqlarga doir so'z, gaplar tavsija etilgan. Shuningdek, bu tovushlarni nutqda qo'llash va mustahkamlash yuzasidan she'r, topishmoq, tez aytishlar, rasm va boshqotirmalar ilova qilingan. Ba'zi topshiriqlarni daftarda bajarilishi orqali mustahkamlash ishlari ham berilgan.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada berilgan nutq materiallari, turli xil rasmlar yordamida bolalarni maktabga tayyorlash, tafakkurini o'stirish, tevarak-atrofni his-tuyg'ular orqali idrok qilishiga va ularning ma'naviy kamolotiga yordam berish ko'zda tutilgan. Mazkur qo'llanmadan ota-onalar, maktabgacha muassasa tarbiyachilari, logopedlar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, talabalar, nodavlat tashkilotlarning jamoa-markazlari, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tasarrufidagi Reabilitatsiya ta'lim markazlari, logopedik yo'nalishdagi internat pedagoglari o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: M.Y. AYUPOVA — Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim va defektologiya fakulteti dotsenti, pedagogika fanlari doktori;
M. XO'JAYEVA — Toshkentdagi 66-yordamchi maktab-internat direktori, oliy toifali o'qituvchi.

42139
M 4g,



© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2013-y.

KIRISH

TUSHUNTIRISH XATI

Maxsus maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchiligidagi og'zaki va yozma nutq kamchiliklari uchraydi.

Ayniqsa, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yordamchi mакtab o'quvchilarining 66 % ida tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, ya'ni tovush-harflarni qoldirib ketish (olma-oma), almashtirish (kitob-pitob) yoki bo'g'in, so'zlarni almashtirish, chalkashtirib aytish (bola-pola, sabzi-tabzi) kabi holatlarga yo'l qo'yiladi. Bu bolalarning nutqi o'z tengdoshlariga nisbatan kechikib rivojlanadi. Bunday holatda o'quvchilar ona tili, o'qish, nutq o'stirish va boshqa fanlarni o'zlashtirishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yadilar.

Bunday kamchiliklarni oldini olish, og'zaki va yozma nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish jarayonida bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarni olib borish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Maxsus ta'lim muassasalarida jismoniy va psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish, bolalarni nafaqat nutqini va rivojlanishidagi turli xil nuqsonlarni bartaraf etish korreksion-pedagogik va rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi. Bolalar nutqidagi barcha nuqsonlar, ularni o'qitish jarayonida qiyinchilik tug'diradi. Shu bois logoped-o'qituvchi korreksion-pedagogik ta'limning maxsus tashkil etilgan jarayoni yordamida bolalar va o'quvchilarning nutqiy faoliyatini tuzatish, korreksiyalash asosida ularning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi.

Qo'llanmada berilgan o'quv-uslubiy materiallar bolalarni to'g'ri, ravon gapishtirishga, nutqini o'stirishga, diqqat, xotira va tafakkurini rivojlantirishga, ma'naviy tarbiyalashga yordam beradi.

Ushbu qo'llanmadagi materiallarni logopedik ish tizimida qo'llash bilan bir qatorda, boshlang'ich sinfda qo'shimcha adabiyot sifatida dars jarayonida ham qo'llanadi. Qo'llanma maktabgacha ta'lif muassasalari, ota-onalar uchun ham bola bilan shug'ullanishida qo'llash uchun tavsiya etiladi. Qo'llanmadan bolani maktab ta'limga tayyorlash va savodga o'rgatishda ham foy-dalanish mumkin.

Artikulatsion mashqlar

Nutq a'zolarining asosiy harakatchanligini aniqlash, to'g'ri talaffuz malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagi nutq mashqlari majmuasi tavsiya etiladi.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun nutq a'zolarining to'g'ri harakatini shakllantirish, birinchi bosqichda, nutqiy mashqlarning asosiy maqsadidir. Artikulatsion mashqlar uchun topshiriqlarni to'g'ri tanlash va uni nutq a'zolarida shakllantirish yaxshi samara beradi. Harakat ko'nikmalarini mustahkamlash, yanada mukammal bajarish maqsadida artikulatsion mashqlarni har kuni 4 – 5 marta o'tkazish tavsiya etiladi. Uni 3 – 4 daqiqa mobaynida ertalabki badantarbiya, tushlik, kechki ovqatdan oldin o'tkazish mumkin. Bolalarga 2 – 3 tadan ortiq mashq tavsiya etilmaydi. Mazkur mashqlarni kichik guruqlar bilan yoki yakka holda soddadan murakkabga qarab, izchillik bilan o'tkazmoq lozim.

Pedagog va ota-onalar bola mashqlarni qay darajada bajarayotganini kuzatib borishadi. Ular harakatning aniqligi va to'g'-riliqi, bajarilish tezligi, bir holatdan boshqa holatga tekis o'tilishi, keraksiz harakatlarning yo'qligiga ishonch hosil qilishlari lozim. Har bir mashq ketma-ketlikda olib boriladi:

- pedagog mashqlarni o'yin usulida hikoya qilishi («Quvnoq tilcha haqida ertak»);
- mashqlarning pedagog tomonidan ko'rsatilishi;
- bolalar mashqlarni oyna yordamida bajarishlari;
- mashqlarning to'g'ri bajarilishini tekshirish, xatosini ko'rsatish;
- mashqlarni oynasiz bajarish (agarda, unga ehtiyoj bo'lmasa).

Birinchi kunda nutq a'zolari, ya'ni til, lablar zo'riqishi mumkin. Asta-sekinlik bilan bu zo'riqish yo'qolib, harakatlar erkin va muvo-fiqlasha boradi. Tayyorlov davrida ikki xil umumi yivojlantiruvchi mashqlar namunadagidek bajariladi. Harakatsiz mashqlarda nutq a'zolarini ma'lum holatda 6–10 soniya davomida saqlab turish talab qilinadi, harakatli mashqlar esa, harakatni 6–8 marta bir me'yorda takrorlashni hamda ularning bir holatdan ikkinchi holatga tekis o'tishini talab etadi.

QUVNOQ TILCHA HAQIDA ERTAK

Bir «Quvnoq tilcha» o‘z uyida yashar ekan. Qani o‘ylab toping-chi, bu qanday uycha ekan?

Bu uychanining qizil eshiklari, eshiklari yonida oppoq quyonchalar bor ekan. Bu quyonchalar konfet va shirinliklarni juda yaxshi ko‘rar ekanlar.

Topdingizmi? Bu uycha – og‘iz. Bu uychanining eshiklari ochilib-yopilar ekan.

Mana bunday (*og‘iz yopiladi va ochiladi*). Tilcha o‘z joyida tinch o‘tira olmas ekan (*tilni chiqaramiz*). Hozir oftobda isinish uchun ayvonchaga chiqdi (*til pastki labda kurakcha shaklida*), so‘ngra uyga kirib, eshikni yopib oladi (*til o‘z joyiga olinib, og‘iz yopiladi*). Quyosh bulutlar orasiga yashirindi va yomg‘ir tom-chilab, tomni ura boshladi (*til bilan tishlarimizni urib, «d-d-d» tovushini talaffuz etamiz*).

Tilcha uyida zerikmaydi. U mushukchaga sut beradi. Mu-shukcha sut ichib (*og‘iz ochiq holda tilni tepadan pastga harakatlantiramiz*), lablarini yaladi va shiringina esnadi (*og‘iz keng ochiladi*). Keyin tilcha soatiga qaradi. U «chiq-chiq»lab yurar edi (*og‘iz ochiq, lablar tabassum holatida, til ichi og‘iz burchaklariga uriladi*). Mushukcha qo‘l-oyog‘ini yig‘ib, yotib oldi. «Men ham uqlashim kerak», deb o‘yladi tilcha.

TIL UCHUN HARAKATSIZ MASHQLAR

(*Tinch holatdagi til mashqlari*)

1. «Qushchalar» – og‘iz katta ochiq, til o‘z o‘rnida tinch holatda yotibdi.
2. «Kurakcha» – og‘iz ochiq holatda, keng bo‘sashgan til pastki lablar ustida yotibdi.
3. «Kosacha» – og‘iz keng ochiq holatda. Tilning old va yon qismi ko‘tarilgan, lekin tishlarga tegmaydi.

4. «Nayza», «nninacha» – og'iz ochiq holatda. Uchli, uzun, zo'riqqan, qattiq til oldinga chiqariladi.

5. «Tepalik», «Mushukchaning jahli chiqdi» – og'iz ochiq holatda. Til uchi pastki tishlarga tiraladi. Tilning ikki chekkasi yuqoriga ko'tarilib, «tarnovcha» hosil qilinadi.

6. «Tarnovcha» – og'iz ochiq holatda. Tilning ikki chekkasi yuqoriga ko'tarilib, o'rtasida ariqcha hosil qilinadi.

7. «Qo'ziqorin» – og'iz ochiq holatda. Tilni tanglayga yopishtirib so'rildi. Har bir mashq 6–8 marta takrorlanadi.

Til uchun harakatlari mashqlar

1. «Soatcha» – og'iz biroz ochiq, lablar tabassum holatida. Til uchi burchaklari tomon galma-galdan harakatlantiriladi.

2. «Iloncha» – og'iz keng ochiq holatda. Til (uchli) uzun chiqarilib, so'ng og'iz ichkarisiga tortiladi.

3. «Arg'imchoq» – og'iz ochiq holatda. Tarang til yuqorida hamda pastga burun va iyak tomon yoki yuqori va pastki tishlar tomon harakatlantiriladi.

4. «Futbol», «Konfetni yashir» – og'iz yopiq holatda. Til o'ng va chap lunjlarga uriladi.

5. «Tish tozalash» – og'iz yopiq holatda. Til lab va tishlar orasida (milkarda aylanma harakatlantiriladi).

6. «G'altak» – og'iz yopiq holatda. Til uchi pastki tishlarga, tilning yoni esa yuqori jag' tishlariga tiraladi.

7. «Toycha» – til tanglayga yopishtirilib so'rildi. Til osti tarang tortiladi, til sekin qo'yib yuboriladi, ovoz chiqariladi.

8. «Garmoshka» – og'iz ochiq holatda. Til tanglayga yopishtirilib so'rildi. Tilni tanglaydan uzmay pastki jag' ketma-ket pastga va yuqoriga harakatlantiriladi.

9. «Bo'yoqchi» – og'iz ochiq holatda. Keng til uchi yuqoridagi tishlardan boshlab yumshoq tanglaygacha harakatlantiriladi.

10. «Shirin murabbo» – og'iz biroz ochiq holatda. Avval yuqori, so'ng pastki lablar aylana bo'ylab yalab chiqiladi.

Lab uchun mashqlar

1. «Tabassum» – lablarni tabassum holatida tutib turiladi. Tishlar ko'rinxaydi.
2. «Devorda» – yuqori va pastki tishlar ko'rsatib turiladi. Lablar tabassum holatida.
3. «Surnaycha» – lablarni uzun trubka shaklida oldiga cho'ch-chaytirish.
4. «Teshik kulcha» – tishlar jipslashgan, lablar teshik kulcha shaklida ozgina oldinga cho'zilgan. Yuqori va pastki tishlar ko'rinxib turadi.
5. «Quyoncha» – tishlar jipslashgan holatda. Yuqori lab ko'tarilib, tepa tishlar ko'rinxib turadi.

Ushbu mashqlar ketma-ket bajariladi. Tayyorlov davrida pedagog yoki ota-onada yuqorida bajarilgan mashqlardan ayrimlarini, ya'ni noto'g'ri talaffuz qilinadigan tovushni to'g'ri shaklantirishga mos keladigan mashqlarni tanlashi lozim.



[S] TOVUSHINI TO'G'RI SHAKLLANTIRISH UCHUN KOMPLEKS MASHQLAR

[S] tovushi talaffuzini to'g'ri shakllantirish uchun quyidagi mashqlarni tavsiya etamiz:

1. «To'pni darvozaga kiritish».

Maqsad: cho'ziq, to'g'ri yo'naltirilgan havo oqimini hosil qilish.

2. «Kim to'pni uzoqqa uloqtiradi?»

Maqsad: til uchini yuqori tishlar orasida tutib turishni o'rgatish.

Tabassum holatida tishlarni ko'rsatib, og'iz biroz ochiladi, til uchi avval qarama-qarshi tomonga, so'ng pastdan yuqoriga harakatlantiriladi.


3. «Tish tozalash».

Maqsad: til orasidan o'tuvchi tekis, uzlucksiz havo oqimini hosil qilish. Tabassum holatida tilning oldingi keng qismini pastki lablar ustiga chiqarib, [F] tovushini uzoq cho'zib talaffuz etib, stol chetidagi paxtani qarama-qarshi tomonga puflash.

4. «Fokus».

Maqsad: havo oqimini til o'rtasidan yo'naltirishni o'rgatish. Og'iz biroz ochilib, til «tog'oracha» shaklida oldinga suriladi va ko'tarilib, burun uchidagi paxtani bir me'yorda, ohista puflash – nafas chiqarish.

[S] TOVUSHI TALAFFUZIDA NUTQ A'ZOLARINING HOLATI



[S] tovushini talaffuz etish jarayonida lablar tabassum holatida bo'lib, tishlar ko'rinish turadi. Tishlar orasida 1 mm oraliq bor yoki ular biroz jipslashgan, til uchi pastki tishlarga tiraladi. Tilning oldingi qismida ariqcha hosil bo'ladi. Yon qismlari esa jag' tishlariga mustahkam yopishib, havo oqimini chetdan siqib kelishiga yo'l qo'ya olmaydi. Havo oqimi ariqchadan o'tadi. Kaftimizning tashqi tomoni bilan biz sovuq havo oqimini sezishimiz mumkin.

Tovush aniq eshitilmasa, gugurt cho'pi yordamida tilning uchini pastki tish orasiga bosib turib [S] tovushini bir necha bor talaffuz qildirib ko'rilib. Shunda, [S] tovushi aniq hosil bo'ladi. Keyinchaliik [S] tovushiga unli tovushlarni qo'shib talaffuz ettiriladi. Agarda, siz [S] tovushini to'g'ri talaffuz ettirishga erisha olsangiz, keyinchalik uni nutqda mustahkamlab borish mumkin. [S] tovushini ko'p marta bo'g'irlarda, so'zlarda takrorlang, o'rganayotgan tovushning o'rnini so'zlarda aniqlang, o'zingiz berilgan tovushlar ishtirokida so'zlar tanlang, ular ishtirokida gap tuzing.

Yakka tartibda ishlash uchun nutq materiallari


[S] tovushi ishtirok etgan bo'g'irlarni bir necha bor aniq va to'g'ri talaffuz qiling.

SA-SA-SA
SA-SA-SA

SU-SU-SU
SU-SU-SU

Necha marta qarsak ovozini eshitsangiz, shuncha marta SA bo'g'inini talaffuz qiling.

Stol ustida nechta tayoqcha bo'lsa, shuncha SA, nechta uch-burchak bo'lsa, shuncha SU bo'g'inini talaffuz qiling.



Kattalarning ortidan bo'g'lnlarni talaffuz qiling.

SU-SU-SU	SA-SA-SA	SA-SO-SU-SO
SU-SU-SU	SA-SA-SA	SA-SI-SO-SU
SU-SU-SU	SA-SA-SA	SO-SU-SI-SA

Kattalarning ortidan, keyin mustaqil ravishda [S] tovushini so'zlarda to'g'ri talaffuz qiling.

Sabzi, soya, soqol, sovun, salsa, sandiq, sabzavot, suyak, so'ri.


So'zlarni talaffuz qiling. [S] tovushini so'zning qaysi bo'g'inida eshityapsiz?

kosa	osmon	asal
rasm	usta	kasal
Rasul	Asad	Hasan

[S] tovushini to'g'ri talaffuz qilishni maqsad qiling. So'zlarni o'qing, ularning ishtirokida gaplar tuzing.

Sim, Asad, hasad, sarimsaq, sichqonlar, ustunlar, rasmlar, ustaxonalar, kosmonavtlar, surnaychilar.

«So‘zlarni to‘ldiring» o‘yini:



Quyidagi katakchalarga mos tovushlarni o‘rniga qo‘ying.

- | | |
|-----------------------------|---|
| <input type="checkbox"/> ut | <input type="checkbox"/> jav <input type="checkbox"/> |
| (sut, tut, but) | (javob, savob) |
| <input type="checkbox"/> ur | <input type="checkbox"/> olgan |
| (dur, tur) | (qolgan, solgan) |

So‘zlarda [S] tovushini to‘g‘ri talaffuz qiling.

Samolyot, sumalak, rasm, atlas.

Tovushlarning tahlili bilan shug‘ullaning.

Shartli belgilar:

- | | |
|---|----------------------------|
| <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> <input type="checkbox"/> | – so‘zning tovush jadvali; |
| <input type="checkbox"/> | – unli tovush; |
| <input type="checkbox"/> | – undosh tovush. |



[S] tovushidan keyin qaysi unli tovush eshitilyapti?




[S] tovushi bor doirachani ko‘rsating.



Rasmlarni nomlang. Har bir tovushni aniq talaffuz qiling.




Rasmlarni ko'ring, ularni avval kattalar ortidan nomlang, so'ng o'zingiz mustaqil takrorlang.



(S) tovushidan so'ng qaysi unli tovush eshitiladi?



Rasmlarni nomlang.



[S] tovushidan so'ng qaysi unli tovush eshitilyapti?

Chizmaga mos so'z topping. Unda [S] tovushi ishtirok etsin.

--	--	--

Qaysi so'z qisqa? Qaysi so'z uzun?

Kattalar ortidan bo'g'lnlarni to'g'ri talaffuz qiling.

SIH-SAR-SON-SIM

SIN-SO'M-SEV-SEN

SLA-SUV-SAF-SAV



So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.


Sariq, gilos, maslahat, savat, somsa, singil, Samandar, istiqlol.



Rasmlarni nomlang. Bolalar ismida [S] tovushi ishtirok etsin.



Rasmlarni nomlang.



[S] tovushi qaysi o'rinda kelyapti?

Har bir so'zda nechta tovush borligini va so'zlardagi harflar ketma-ketligini daftaringizda belgilang.

s	o	a	t
---	---	---	---

Bu so'z chizmasida [S] tovushining o'rnini ko'rsating.

So'zlarni diqqat bilan eshititing va takrorlang.

Sayyora, Mastura, Sohiba, Muxlisa.

Shu so'zlardan foydalanib gaplar tuzing.




So'zlarni namunadagidek o'zgartiring.

Namuna: kosa – kosalar



narsa – ... stul – ... sumka – ...



Rasmlarni nomlang. Ikkinchi, uchinchi ustunda qaysi rasmlarni joylashtirish mumkin? (Sigir, gilos, sichqon, kosa, qafas, asal.)









[S] tovushi so'zning qayerida kelyapti (boshida, o'tasida, oxirida).
Har bir so'z ishtirokida gaplar tuzing.

Quyidagi so'zlarning birinchi tovushini boshqa tovush bilan
almashtiring.

Savat, sim, bos, Samira, Soli, sovuq
Savat-qavat



Rasmlarning nomini to'g'ri talaffuz qiling va shu asosda gaplar
tuzing.





Uy jihozlari, qushlar, hayvonlar, mevalar, o'quv quollarining nomlarini eslang.

[S] tovushi qaysi rasmning nomida va qayerida kelyapti?





Rasmlarni avval kattalar ortidan nomlang, so'ng o'zingiz so'zlarni mustaqil takrorlang. Har bir so'zda bo'g'inlar sonini aniqlang. (Har bir so'z bo'g'inga ajratib aytildi).



So'zlarni juftlab aytинг.

Uzun–qisqa
Issiq–sovuoq

Qavs ichida berilgan so'zlardan foydalanib, she'rni to'ldiring (dengiz, elimniki, yerlar, bizniki)

Keng dalalar, o'rmon,...,
Gulzor, bog'lar – bari...
Daryo, ko'llar, serhosil...,
Oltin tog'lar, hur...

Tushib qolgan unlilarni qo'yib, so'zlarni hosil qiling.

*	s	m	*	n
z	*	m	*	n
s	*	m	*	n

*	s	*	m
r	*	s	m
f	*	s	l

So'zlarda «s» tovushi o'rnnini toping.

[S] tovushi ishtirok etgan bo'g'lnlarni, so'zlarni takrorlang.

Sa-li-ma, say-ra, so'z-la, siy-rak, foy-da-siz, tas-diq, max-sus,
sa-vat, Yu-nus, in-son, mas-la-hat, kek-sa, sarf, iq-ti-sod, sinf.


Quyidagi chiziqchalar bo'yicha gap tuzing.

... sochiq
Arslon



Topishmoqlarni toping va yod oling


Qog'ozim qora,
Qalamim oq.



Birlashtirib kiyimni,
Issiq tutaman sizni.



Oyna kabi yaltirar,
Ushlasa qo'l qaltirar.
Goh tarnovda osilar,
Goh ko'lmakda topilar.



To'planishib bir zumda,
Osmonni to'ldiradi.
Yig'lab-yig'lab ba'zida,
Zaminni to'ydiradi.



Bo'lar sariq yo qizil,
Yer tagida yetilar.
Tupida yakka hosil,
Yashil sochi selkillar.







Rasmlarni nomlang va shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.



Rasmlarni nomlang va so'zlarni bo'g'inlarga ajrating.



Nechta bo'g'in bo'lsa, shuncha marta chapak chaling.

[S] tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar

Ibrohim Donish

SARIMSOQ



Sarimsoqman, sarimsoq,
Doim mening tanim sog'.
Sal hidi bor demasang,
Ko'p emas, oz-oz yesang.
Go'yoki suv, havoman,
Ming bir dardga davoman.

She'rni ifodali o'qing va yod oling.

Tolib Yo'Idosh

BIR BOLA BOR

Bir bola bor ismi Salom,
Salom nima o'zi bilmas.
Ko'cha-ko'yda, maktab, uyda,
Keksa-yoshni ko'zga ilmas.




Axir bunday nom qo'yganlar,
Yaxshi bo'lsin, deb qo'yadi.
Salomvoy-chi, erta kunda,
Salomini yeb qo'yadi.



Rasm asosida quyidagi so'zlarni qatnashtirib, bahor haqida kichik hikoya tuzing.

Bahor, tog'lar, qor, suv, soy, gullar, toshlar, o'tlar, o'simliklar, daraxtlar, oqdi, urilib.



Namuna: Bahor keldi.


Bahor keldi, tog'larda qor eridi. Soylarda suv ko'payadi.
Suvlar toshlarga urilib oqa boshladi.

Nuqtalar o'rninga so'z toping va gap tuzing.

Sochni Soatni Sandiqni Sumkani




Rasmlarni nomlang.



Sichqon, timsoh so'zlari nechta bo'g'indan iborat, nechta bo'lsa, shuncha marta chapak chaling.



Rasmdagi narsalarning nomini ayting va gap tuzing.



So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va [S] tovushining o'rnnini aniqlang.

Sim, sandiq, usta, patnis



Maqollarni yod oling, «s» tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Suv qatrasи – dur qatrasи.

* * *

Sanamay sakkiz dema.

* * *

Sabr tagi – sariq oltin.

* * *


So'rab o'rgangan olim, so'ramagan o'ziga zolim.



Tez aytishni to'g'ri, ravon aiting.

Sadadagi bir dona sayroqi bedana Soqiniki,
Sadadagi sayramay yotgani Boqiniki.

Rasmga qarab gap tuzing.



[Z] TOVUSHINING TO'G'RI TALAFFUZI

ZA-ZA-ZA-ZANJIR
ZO-ZO-ZO-ZOKIR
ZI-ZI-ZI-ZINA

OZ-OZ-OZ-OZOR
UZ-UZ-UZ-UZUM
IZ-IZ-IZ-BIGIZ

Rasmlarni nomlang, (Z) tovushini to'g'ri talaffuz qiling.



[Z] TOVUSHINI TO'G'RI SHAKLLANTIRISH UCHUN KOMPLEKS MASHQLAR

[Z] tovushini to'g'ri shakllantirish uchun quyidagi artikulatsion mashqlarni tavsiya etamiz.

1. «To'pni darvozaga kiritish».

Maqsad: cho'ziq, to'g'ri yo'naltirilgan havo oqimini hosil qilish.


2. «Kim to'pni uzoqqa uloqtirdi?»

Maqsad: til, tish orasidan o'tuvchi tekis, uzluksiz havo oqimini hosil qilish. Tabassum holatida tilni oldingi keng qismini pastki lablar ustiga chiqarib, [Z] tovushini cho'zib talaffuz etib, stol chetidagi paxtani qarama-qarshi tomonga puflash.

3. «Tish tozalash».

Maqsad: til uchini yuqori tishlar orasida tutib turishni o'rgatish. Tabassum holatida tishlarni ko'rsatib, og'iz biroz ochiladi, til uchi avval qarama-qarshi tomonga, so'ng pastdan yuqoriga harakatlantiriladi.

[Z] TOVUSHI TALAFFUZIDA NUTQ A'ZOLARINING HOLATI



Lablar tabassum holatida bo'lib, tishlar ko'rinib turadi. Tishlar orasida 1 mm oraliq bor yoki ular biroz jipslashgan. Til uchi pastki tishlarga tiralgan. Tilning oldingi qismida hosil bo'ladi, yon qismlari tishlarga mustahkam yopishib, havo oqimini chetdan chiqib ketishiga yo'l qo'yaydi. Havo oqimi ariqchadan o'tadi.

Kaftimizning tashqi tomoni bilan biz sovuq havo oqimini sezishimiz mumkin.

[Z] tovushi-jarangli, uning shakllanishida ovoz paychalarini birlashib tebranadi.

[Z] tovushini to'g'ri talaffuziga erishilganidan so'ng uni nutqda mustahkamlash jarayoniga o'tish mumkin.

Yakka tartibda ishlash uchun nutq materiallari

[Z] tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar

[Z] tovushi ishtirokidagi bo'g'lnlarni bir necha marta talaffuz qiling.

ZA-ZI-ZA-ZI
ZI-ZA-ZI-ZA


Necha marta qarsak ovozini eshitsangiz, shuncha ZI bo'g'inini talaffuz qiling.

[Z] tovushi ishtirok etgan bo'g'lnlarni o'qing.

ZA-ZO-ZU-ZI
ZI-ZA-ZO-ZU

ZI-ZU-ZA-ZO
ZU-ZA-ZO-ZI

Stol ustida nechta tayoqcha bo'lsa, shuncha ZA, nechta uch-burchak bo'lsa, shuncha SU bo'g'inini talaffuz qiling.



Ochiq bo'g'lnarni aniq talaffuz qiling.

ZA-ZA-ZA

ZO-ZO-ZO

ZU-ZU-ZU

ZO-ZO-ZO

ZI-ZI-ZI

ZO-ZO-ZO

(Z) tovushini to'g'ri talaffuz qiling hamda mustaqil ravishda mashq qiling.

Zanjir, Manzura, Yulduz, Zumrad, kuz, iz, ustoz, qoziq, zot.

[Z] tovushi so'zning qayerida (boshida, ortasida, oxirida) kelayotganini ayting.

So'zlarni talaffuz qiling. [Z] tovushi so'zning qayerida eshitilyapti

ZAR

ORZU

ZOR

BIZ

ZAMIRA

OZOR

MUZ

TARVUZ

BOZOR

[Z] tovushini to'g'ri talaffuz qilishni mashq qiling. So'zlarni o'qing va ularga tovushdoshlar topib yozing.

oz, zo'r, qozon, kuz, toza, qo'ng'iz.

Masalan: *soz, boz, yoz, noz.*

«So'zni davom ettiring» o'yini:

TO
VA
G'O'

MAN
QI
HA

U
BU
TU

ZIL

ZOO

«Kerakli tovushni toping» o'yini:

Qaysi tovush yo'qolib qoldi?

OHID

ANJIR

AYNAB

UMRAD


AL

INA

So'zlar qaysi tovush bilan boshlanyapti?



Rasmlarga qarang va ularni nomlang. [Z] tovushini to'g'ri va aniq talaffuz qiling.






So'zlarga tovushdoshlar tanlang.


Zina—zira,
zora—...
uzum—...
ko'z—...



Rasmlarni nomlang.



Zanjir, sakkiz so'zlarida [Z] tovushi ishtirok etgan bo'g'inni
ayting. Rasmdagi bolalarga [Z] tovushi ishtirok etgan ism qo'ying.



Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Nargiza, Zaynab, Vazira.

Namuna bo'yicha so'zlarni o'zgartiring.

So'zlarga ko'plik qo'shimchasini qo'shing.

N a m u n a : sabzi–sabzilar.

Piyoz–...

Qiz–...

Yulduz–...

 So'zlarni eslab qoling.

Kuz, uzum, gulzor, tarvuz.

Shu so'zlar qatnashgan kichik hikoya tuzing.

N a m u n a : Kuz keldi. Dalada poliz ekinlari yetildi:
tarvuz, qovun, bodring, ...

Hikoyani davom ettiring va sarlavha qo'ying.

She'rni o'qing. [Z] tovushi bor so'zlarni aniq va ravon talaffuz qiling.

Tolib Yo'dosh



YULDUZLAR


Osmon to'la yulduzlar,
Sanog'iga yetmayman.
Balki sanab yetarman,
Buni sizga aytmayman.
Bog'chada o'rganganim
Bir-ikkidan o'ngacha.
Shuncha yulduz borligin
Bilmas edim bungacha.





Quyidagi gaplarni tugating.

Men uzum...
Qushlar – bizning...
Biz o'z Vatanimizni...
Biz tinchlik qo'shig'ini...



Rasmlarni nomlang.





O'ylab ko'ring. Ikkinchi ustundagi bo'sh kataklarga qanday rasmlarni joylashtirish mumkin, uchinchi ustundagi kataklarga-chi? Tarqatma rasmlardan foydalanib, kataklarga mos rasmlarni qo'ying.

[Z] tovushili bo'g'lnlarni va so'zlarni aniq talaffuz qiling.

ZA-ZA-ZA-ZAX
ZO-ZO-ZO-ZOG'
ZU-ZU-ZU-ZUHRA
ZI-ZI-ZI-ZIRA
ZO'-ZO'-ZO'-ZO'R

AZ-AZ-AZ-GAZ
OZ-OZ-OZ-OZ
UZ-UZ-UZ-TUZ
IZ-IZ-IZ-AZIZ
O'Z-O'Z-O'Z-KO'Z



Rasmlarni nomlang.




Talaffuzi bo'yicha so'zlarni taqqoslang.

OS-OZ
IS-IZ
SOL-ZOL
SIRA-ZIRA

SIM-ZIM
SIR-ZIR
QARS-QARZ


Berilgan mos so'zlardan foydalanib kataklarni to'ldiring.

Zot, zina, zax, Zahro, xo'roz, g'o'za.



Topishmoqlarni toping va do'stlaringizga ayting.

Kunduzi izzatda,
kechasi xizmatda.



O'zi bitta,
qulog'i to'rtta.

So'zlarda [Z] tovushining o'rnini aniqlang.


Zirak

Qozon

G'oz

So'zlar chizmasini ko'ring. [Z] tovushi qora rangda belgilangan. Belgilangan so'zlarni chizma asosida daftaringizga mos ravishda ko'chiring.

zal, Zohid, g'o'za, qoziq, yalpiz, piyoz, zanjir.



Maqollar

Oz so'zla–soz so'zla.

* * *

Orzuga ayb yo'q.

* * *

Yuzga aytganning zahri yo'q.

* * *

Bola aziz, odobi undan aziz.

She'rni tinglang. (Z) tovushi bor so'zlarni eslab qoling.

MASHINAM

G'iz-g'iz uchar mashinam,
Viz-viz uchar mashinam.
Kalin burab qo'ysam,
Tez-tez uchar mashinam.

Dadam keltirgan uni,
O'ynasin deb har kuni,
Bog'chamga birga borar,
Tashiyman uni-buni.

Bo'la qolsaydim katta,
Shofyor bo'lgum, albatta.
Qizil chiroq yonganda –
To'xtab qolaman shartta.



Topishmoqlarning javobini toping.

Zuv-zuv borar,
Zuv-zuv kelar.
Doston o'qir,
G'alvir to'qir.



Qizdirsang ishlar,
Kiyim tekislar.



Tunda ko'rib cho'g' deysan,
Tongda ko'rib yo'q deysan.



Mazasi qaymoq kabi,
Eriydi sariyog' kabi.
Yozda rosa yesangiz,
«Oh-oh maza», desangiz.

Sirg'aluvchi [S] va [Z] tovushlarini differensiatsiyalashga oid mashqlar

Quyidagi bo'g'in va so'zlarni aniq talaffuz qiling.

OS-OZ

IS-IZ

SIRA-ZIRA

QARS-QARZ

SIYRAK-ZIYRAK

SOMON-ZAMON

Nuqtalar orniga tegishli harflarni qo'yib o'qing.

...avat

...ang

...avdo

...amona

...alomat

...afar

...a'va


...argar

Quyidagi savollarga to'liq javob bering.

- Sabzi, piyoz, kartoshka, karam, sholg'omlarni bir so'z bilan nima deb aytamiz?
- Qaysi hayvonlar nomida [S] va [Z] tovushlari bor?
- Qaysi ranglarning nomida [S] va [Z] tovushlari bor?
- Qaysi qushlar nomida [S] va [Z] tovushlari bor?

Sirg'aluvchi [S] va [Z] tovushlarini differensiatsiyalashga doir amaliy mashg'ulotlar

Quyidagi rasmlar asosida gaplar tuzing.



8
9



Tez aytishlar

Uzuk ko'zi tuzukmi, uzuk ko'zi buzuqmi?

Fayozning ko'p piyozi po'k piyoz,
Niyozning ko'p oq piyozi to'q piyoz,

Sodiq sochiqqa sochini artdimi,
Sochiqqa Sodiq sochini artdimi?

Sodiq Salimga soat berdimi,
Salim Sodiqqa soat berdimi?



Maqollar

Yetti o'lchab, bir kes.

* * *

Ilmli o'zar, ilmsiz to'zar.

* * *

Oz so'zla, soz so'zla.

Suvning onasi buloq,

So'zning onasi quloq.

* * *

Sanamay sakkiz dema.

Nuqtalar o'rniga tegishli so'zlarni qo'yib o'qing.

- Biz ... ham, kuchli izg'irinlardan ham qo'rqlaymiz.
- Sarvar sigir va ... suv berdi.
- Kuzda shabada g'ir-g'ir ...
- Kuz qanday go'zal ... !
- Sobir biz bilan birga...tayyorladi.
- Tozalik – ... garovi.

Tekshirish uchun so'zlar: sovuqdan, buzoqqa, esadi, fasl, dars, sog'liq.

So'zlarda «S» va «Z» tovushlar o'rnini aniqlang.

Quyidagi gaplarni o'qing va yozib oling. [S] va [Z] tovushlarini talaffuziga e'tibor bering.

Bu soat. Bu usta. Usta soatni tuzatdi.

Bu sinf. Sinfning ozodaligini Salima nazorat qiladi.

Suvni isrof qilmang. Bog'ga zag'izg'on uchib keldi.

Zarifa bilan Sanobar gullardan gulasta yasadilar.

Oq pilla, sariq tilla, pillamas asl tilla.


Ziyoda sochlarini silliq taradi.

Men avtobusda Zilolani ko'rdim.

Quyidagi so'zlarga to'liq javob bering.

- Qaysi transportning nomida [S] tovushi bor?
- Qaysi daraxtlarning nomida [S] tovushi bor?
- Qaysi uy jihozlarining nomida [Z] tovushi bor?
- Qaysi hayvonlarning nomida [Z] tovushi bor?
- Qaysi qushlarning nomida [Z] tovushi bor?

[J] VA [SH] TOVUSHLARI TALAFFUZIDA NUTQ A'ZOLARINING HOLATI



[J] va [SH] tovushlarining to'g'ri talaffuzi va nutqda shakllanishi taqlid orqali ham o'rgatiladi. Shu tovushlarni talaffuz qilishda yoshi kattalar ham o'zlarini tekshirishlari mumkin.

Lablar aylana shaklida va qisman oldinga cho'ziladi. Tishlar bir-biriga jipslashgan, lekin bir-biriga tegmaydi, ularning oralig'i 2–3 mm, tepe va pastki jag' tishlar ko'rinishi turadi.

Tilning keng qismi yuqori tanglayga yoki qattiq tanglayning oldingi qismiga ko'tariladi va ular orasida oraliq hosil bo'ladi. Tilning o'rta qismi pasaygan va pastga bukilgan bo'lib, «Tovoqcha»ning o'rta qismi hosil qilingan.

Tilning orqa qismi qisman ko'tariladi va cho'ziladi. Tilning yon qismlari ichkaridan tepe jag' tishlariga jipslashadi. Til mushaklari qisman tarang tortilib, yumshoq tanglayga ko'tariladi va hal-qumning orqa devoriga jipslashadi. Burun bo'shlig'inining yo'li berkitilgan holatda bo'ladi.

Tovush paychalari jipslashib, [J] tovushining talaffuzida ovoz hosil bo'ladi.

Tovush paychalari jipslashgan va titraydi, [SH] tovushining talaffuzida ovoz hosil bo'ladi.

Havo oqimi tilning o'rta qismidan tekis chiqib ketadi. Kaftimizning tashqi tomoni bilan biz iliq havo oqimini sezishimiz mumkin.

Yakka tartibda ishlash uchun nutq materiallari

[J] tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar

[J] tovushi bo'g'inlarini bir necha marta talaffuz qiling.

JU-JO-JU-JE
JA-JU-JO-JA

Kattalar ortidan quyidagi bo'g'lnlarni talaffuz qiling.

JA-JO-JU-JE
JO-JU-JA-JO

So'zlarda (J) tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Jo'ja, jo'va, jarangdor, jang, jo'ra, juft.



Rasmlarni nomlang.



Rasmdagi so'zlarni takrorlang. (J) tovushi bilan boshlanadigan so'zlarni ayting. (J) tovushi so'zning boshida kelishiga misollar ayting.

Anjir, toj so'zlarida (J) tovushi so'zning qayerida kelyapti (o'r-tasida, oxirida)?

Anjir, jim, juda so'zlarida harflar o'rmini to'ldiring.


A * * i * * i * * u * a

So'zlarni takrorlang.

Reja, go'ja, jahon, Jambul, jajji.



Rasmlarni nomlang.



Rasmlardagi so'zlarda (J) tovushi so'zning qayerida kelyapti?






Rasmlarni nomlang. (J) tovushini aniq va ravon talaffuz qiling.

Bolalarga (J) tovushi ishtirok etgan ism qo'ying. Bu rasmlardan qaysilari o'simlikka kiradi?





Rasmlarni nomlang. [J] tovushi boshida, o'ttasida va oxirida kelgan so'zlarni ayting.





Rasmlarni nomlang.





Bo'sh kataklarni oldingizdagи qirqma rasmlardan foydalanib o'zingiz to'ldiring.

So'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga e'tibor bering.

Jannat, jo'ja, jigar, jadval, jiyda, toj, marjon, jahl, jiblajibon, jayron, javob.



Rasmlarni ko'ring, ularni nomlang. [J] tovushi ishtirok etgan 5 ta o'g'il va 5 ta qiz bola ismini toping.





[J] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Jamila juda odobli qiz.
Biz makkajo'xori ekdik. Jur'at ko'p o'qiydi.

[SH] TOVUSHI TALAFFUZIDA NUTQ A'ZOLARI HOLATI

Bo'g'inlarni o'qing.



Quyidagi bo'g'inlar ishtirokida gaplar tuzing.

Sha, Shu, Shi, Ash, Ush, Ish, O'sh.

Tez aytishlarda, maqollarda [Sh] tovushini mustahkamlang.



Maqollar

Osh desa chopar, ish desa qochar.
* * *

Kishining o'ziga emas, ishiga boq.
* * *

Hunarli kishi, xor bo'lmas.



Tez aytishlar

Mahallaning manzarasi Manzuraga manzur bo'ldi.

Kishmish yegan kishining,
Tishi qamashmasmish.

So'zlarning tovush tarkibini taqqoslash.

sham-jam
shim-jim
sho'rva-jo'ja

shoxli-jonli
shamol-jamol

She'rlarni ifodali o'qing. [Sh] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

QANI TOPING-CHI!

Hil-hil pishib,
Oq shaftoli,
Shoxda turar,
Toq shaftoli.
Usmon to'rtta,

Yedi kecha.
Oyim menga,
Berdi beshta.
Qani, toping,
Bari nechta?

Tolib Yo'ldosh

YAXSHI BO'L DEB

– Yaxshi bo'l, – deb erkalab,
Oyim meni suyarlar.
Sho'xlik qilsam kuyinib,
Ichlaridan kuyarlar.
– Bolasan-da, – deydilar,
O'zim o'ylab qolaman.
Aytganlarin qilay deb,
Yo'lda o'ylab qolaman...

Habib Rahmat

YAXSHISI

– O'rgatgan bilan shuncha,
Xato ishlading buncha.
Hisobdan zig'irchalik
Yo'qmi senda tushuncha?

– Voy oyi-ey, uf, – der qiz,
 – Sizga ne dey, xo'p, – der qiz.
 Meni ko'pam qiynamay,
 Ham o'zingiz qiynalmay.
 Qo'lingizdan kelarkan,
 Ishlab bering indamay.




Topishmoqlar

O'zi ichkarida,
Soqoli tashqarida.



Tilla sandiq ochildi,
ichidan zar sochildi.



Qo'lsiz-oyoqsiz eshik ochar.



Tez aytish

Shoqosim shotutning shoxini Shokirdan oldi.

She'rni o'qing.

SHAFTOLI

Ko'pligidan shaftoli
 Shoxi yerga bukilar.
 Tirogovuchlar ushlolmay,
 Shamol tursa, to'kilar.



Yakka tartibda ishlash uchun nutq materiallari


[Sh] tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar

[Sh] tovushi ishtirokidagi bo'g'lnlarni bir necha marta talaffuz qiling.

ASh-OSh-USh-ISh
OSh-USh-Sh-ASh
YaSh-YoSh-YuSh
YuSh-YaSh-YoSh

Necha marta qarsak ovozini eshitsangiz, shuncha ShU bo'g'inini talaffuz qiling.

Stol ustida necha doira bo'lsa, shuncha ShA, nechta uchburchak bo'lsa, shuncha ShU bo'g'inini talaffuz qiling.



[Sh] tovushi ishtirokidagi ochiq bo'g'lnlarni aniq talaffuz qiling.

ShA-ShI-ShU-ShE
ShI-ShA-ShE-ShU
ShU-ShE-ShA-ShI
ShU-ShE-ShA-ShI



Rasmlarga qarab, so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.



Har bir so'zga oid gap tuzing.



Topishmoqlarning javobini toping.




Yapaloqoyim yer tagida,
Quloqlari yer yuzida.



Ko'kka chiqib olovli shar,
Bizga ziyo ulashar.




Makonidir dalalar,
Yer tagida bolalar.



Sandiq to'la sadaf.




Rasmlarni nomlang. O'ylab ko'ring-chi, bularning qaysi biri jonli,
qaysi biri jonsiz.





Rasmlarga qarab, so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.




Har bir so'zga oid gap tuzing.

So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Shotut, shag'al, sholg'om, g'isht, shifer, bo'sh, topshiriq, shama, kashfiyat, sho'r.



Rasmlarni nomlang. [Sh] tovushini so'zdagi o'rnnini toping.



Tovush tuzilishi bo'yicha so'zlarni taqqoslang.



Bu so'zlar qaysi tovush bilan boshlanyapti?
Qaysi so'z jarangsiz tovush bilan boshlanyapti?

So'z chizmasini tuzing va daftaringizga ko'chiring.


TOSH




QOSHIQ



BOSH



Rasmlarni nomlang. So'zlarda [SH] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.





Tez aytishlar

Qo'sh qo'lqop,
Qo'shovi ham bo'sh qo'lqop.

Qurilishda burilish,
Burilishda qurilish.



SHAFTOLI

Sariq, oq shaftoliman,
Zarg'aldoq shaftoliman.
Maqtanib o'Itirmayman,
Maqtanchoq shaftoliman.



Rasmlarni nomlang. Qaysi so'zda «SH» tovushi ishtirok etadi?



[SH] tovushi ishtirokidagi bitta, ikkita, uchta bo'g'indan tuzilgan so'zlarni ayting.

So'zlardagi birinchi tovushni [SH] tovushiga aylantiring va yangi so'zlarni nomlang.

Soli-sholi

so'ri—...

Soda—...

sarpa—...

Sol—...

sim—...

[SH] tovushi talaffuzini mustahkamlash

KO'KLAM QO'SHIG'I

Momaqaldiroq

Jaranglab ketdi.

Arava qo'shib,

Yomg'irning sozi.

Tog'lar ustidan

Yomg'ir yog'moqda,

Kelmoqda tushib.

Shitir-shitirlab.

Tog' qulaganday

Ko'klam qo'shig'in,

Bo'ldi ovozi.

Aytar shivirlab.



Topishmoq

Osti tosh, usti tosh
O'rtasida chandir bosh.



Topishmoqni yoddan ayting.

CHORLASHMA

Ashula, shula, shula,
Qozonda pishdi shavla.
Keling, qo'shiq aytaylik,
Jo'r bo'lishib, bir yo'la.



Tez aytishlar

Shamsi Jamshidga shama qildimi?
Jamshid Shamsiga shama qildimi?

Shojalil shijoati jo'shib turibdimi?
Yoki tushida cho'chib turibdimi?

So'zlardagi [Sh] tovushini to'g'ri talaffuz qilishga e'tibor bering.

Shim, sham, sholi, pishiriq, pishloq, kishi, toshbaqa, mosh, bosh, tashna.



Rasmlarni nomlang va ular ishtirokida gap tuzing.



So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

Abdurashid, eshik, besh, tegishli, yig'ilish, mish-mish, topishmoq, qiziqish, shirin, tekshirish.

Sha bo'g'iniga ...**kar**, **mol**, bo'g'inlarini, qo'shsak, qanday so'zlar hosil bo'ladi.

Sha
└───┐ kar
└───┐ mol



Topishmoqni toping.

Aslim tuproq bo'laman,
Pishgach, kuchga to'laman.
Rangim sariq, qizg'ish-oq,
Quruvchiga men o'rtoq.



[SH] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Mashina, g'isht, sharq, shamol, ushoq, shirin, bosh, yumush, yosh.



Rasmlarda nima tasvirlangan.



Bu so'zlarda nechta bo'g'in bo'lsa, shuncha qarsak chaling.

Mashina, qush.

So'zlarda [SH] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Sholi, shim, ish, yaxshi, sher, qish, qo'shni, toshbaqa, sharshara, sharbat, shaxdam, arralash, yashna, quyosh, yarashgan, yaratish, yashash.




Rasmlarni nomlang. (SH) tovushini aniq va ravon talaffuz qiling.




So'zlarning talaffuzini taq qoslang. Shu so'zlardagi birinchi, ikkinchi, uchinchi tovushlarni ayting. So'zlarning talaffuzida qanday o'xshashlik va qanday farq bor.

SHAR



SHARF



Sh – undosh, jarangsiz, sirg'aluvchi tovush.

A – unli tovush.

R – undosh, jarangli tovush.


Sh – undosh, jarangsiz, sirg'aluvchi tovush.

F – undosh, jarangsiz, sirg'aluvchi tovush.

Savollarga javob bering:

- Birinchi, ikkinchi, uchinchi tovushlar qaysilar?
- So'zlarda nechta unli va undosh tovushlar bor?
- Nechta bo'g'indan iborat?
- So'zda nechta tovush bor?

SHAM



SHKAF



Urg'uli, SHA bo'g'inli so'zlarni ayting.

Urg'usiz SHO bo'g'inli so'zlarni ayting.



[SH] tovushi qatnashgan o'g'il va qiz bola ismini ayting.

[SH] tovushi ishtirok etgan so'zlarni qatnashtirib, quyidagi rasmlar asosida hikoya tuzing.




She'rlarni o'qing. [SH], [J] tovushlarining talaffuziga e'tibor bering.

Tolib Yo'l dosh

BOG'IMIZ BOG'DAY BO'LDI

Tol ekdis, terak ekdis,
Hammasi kerak, ekdis.
Olcha, gilos, olxo'ri,
Olmazor bog'ning to'ri.
Nok, nashvati bir tomon,
Ko'klam, ekmaslik yomon.
Shaftoli, shotut, jiyda
Joyini topgan juda.
Bog'imiz bog'day bo'ldi,
Ko'nglimiz tog'day bo'ldi.



SHOLG'OM

Mazaman, der anjir sholg'om,
Yemagandan ranjir sholg'om,
– O'z nafini bilmagan ko'p,
Bilar bo'lsa, yemasmi xo'p.
Jonga malham taom bo'lsam,
Bir qaynashda tamom bo'lsam...
To'g'ri, ta'mim biroz taxir,
Doriligm shu-da, axir.
Boshdan oxir foydaman, der,
Yil o'n ikki oydaman, der.

JO'JAXO'ROZ

Jo'jaxo'roz urishmas,
Urishsa ish yurishmas.
Onasi don bermaydi,
Otasi non bermaydi.

Och qolar, qorni to'ymas,
Urishqoqni el suymas.
Ahil bo'ling deydilar,
Birga topib yeydilar.

SHIRIN SO'Z

Shirin so'z bu qanday ekan,
 Yeb bo'larmi?
 Mazasini bilmay, shirin
 Deb bo'larmi?
 Shirindirki, shunday derlar
 Erta kunda.

Birorta sir bo'lsa kerak,
 Ammo bunda.
 Shirin so'zdan tan yayraydi,
 Shirin-shirin,
 Shirin so'zli odam bilar
 Buning sirin.

SH BILAN CH

«Arra», «karra» so'zlarini
 Burro aytar ukam Botir.
 «Sh» bilan «Ch» harflariga
 Biroz tili kelmayotir.

- Pishloq yedim qishloqda,
 Shermat yurar «Chayka»da.
- Pisloq yedim qisloqda,
 Sermat yurar «Sayka»da.


– Chinoraning chinnisi bor,
 Chinnisida shinnisi bor.
 – Sinoraning sinnisi bor,
 Sinnisida sinnisi bor.

Ana shunday jumlalarni
 Sal qiynalib aytar Botir.
 Lekin juda mashqi baland,
 Olmang undan hech xavotir.

[CH] TOVUSHI TALAFFUZIDA NUTQ A'ZOLARINING HOLATI

[CH] tovushining talaffuzini to'g'ri shakllantirish uchun lablar biroz oldinga chiqariladi va aylana shakliga keltiriladi.

Tishlar bir-biriga yaqinlashgan, tilning keng uchi qattiq tanglayning old qismida ko'tarilgan bo'lib, chuqurcha hosil qilinadi. Tilning yon qismi esa tepa jag' tishlarga jipslashadi. Havo oqimi tilning old qismi va yuqori tanglay o'rtaida hosil bo'lgan kovakchadan o'tadi.



Yakka tartibda ishlash uchun nutq materiallari

[CH] tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar

[CH] tovushi bo'g'lnlarni bir necha marta talaffuz qiling.

CHA-CHA-CHA-CHA
CHO-CHO-CHO-CHO
CHU-CHU-CHU-CHU
CHI-CHI-CHI-CHI

ACH-ACH-ACH-ACH
OCH-OCH-OCH-OCH
UCH-UCH-UCH-UCH
ICH-ICH-ICH-ICH

Necha marta qarsak ovozini eshitsangiz, shuncha CHA bo'g'inini talaffuz qiling.

[CH] tovushini so'zlarda to'g'ri talaffuz eting.

Choy, archa, ko'chat, ruchka, chayla, o'chirg'ich, chumoli, pochta, olcha, tancha, cho'mich, saqich, pechka, pichoq, sichqon.

[CH] tovushi bilan tugallangan so'zlarni takrorlang (o'chirg'ich...).


Bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarni eshititing va ulardan birini nomlang:

- A) uy ro'zg'origa tegishli (tancha, chovli, cho'mich);
- B) qushlar (chumchuq, chittak, qaldirg'och);
- C) o'simliklar (chuchmoma, chinor, chinnigul);
- D) kasblar (o'qituvchi, uchuvchi, haydovchi).

Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni toping.

O'zingizni tekshiring: och–osh, kuz–kuch, tog'–dog',
kuchuk–chuchuk ...

 Rasmlarni ko'rib chiqing, ularning nomini kattalar ortidan qaytaring,
so'ng o'zingiz mustaqil nomlang.



So'zlarda [CH] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Pochta, kuchuk, choy, chang, echki, sichqon, chigirtka, champion, ishchi, ro'molcha, chumchuq, cho'p.



Rasmlarni nomlang.



Bu so'zlarning umumiyligi nimada? **Choy** so'zida tovush nechta? (3 ta). **Choynak** so'zida tovushlar nechta? (6 ta).

Kattalar ortidan so'zlarni qaytaring. [CH] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Toichoq, choygun, charos, ochqich, cho'mich, chang, achchiq-chuchuk.



Rasmlarga qarang va ularni nomlang. [CH] tovushi so'zning qayerida kelayotganini aiting.



So'zlarni shunday o'zgartiringki, ularda [CH] tovushi ishtirok etsin.

Rul–ruchka
Qo'l—...
Chumchuq—...



Ro'mol—...
Ko'rpa—...
Kuchuk—...



Rasmlarni nomlang. (CH) tovushini to'g'ri talaffuz qiling.




O'g'il bolalarga va qizlarga beshtadan [CH] tovushli ismlar toping.
(Charos, Gulchehra, Cho'lpon, Qo'chqor, ...).



So'zlarni o'qing va bo'g'irlarga bo'ling.

Uchuvchi, chap, chiziq, kuch, chumoli, cho'yan, quruvchi.



Chizg'ich, sichqon, o'yinchoq, archa so'zlari ishtirokida gap-lar tuzing.

[CH] tovushi bor o'simliklar nomini ayting.



Rasmlarni bir so'z bilan nomlang. Yaxshi ko'rgan gulingiz nomini ayting.

So'zlarda tovushlarni taq qoslang va ularni chizmaga tushiring.

ancha

bochka

soch

uch

qancha

pochta

qosh

kuch

O'yinchoq va arg'imchoq so'zlarida qaysi bo'g'in umumiy?

Bolalar o'yinchoqlar bilan o'ynayaptilar. Qizlar arg'imchoq uchmoqdalar.

O'zingiz ham yuqoridagi gaplarga o'xshash gap tuzing.

Bog' va polizda nimalar o'sishi haqida hikoya tuzing. Unda [CH] tovushi ishtirok etgan so'zni ishlating. [CH] tovushi bor qaysi o'simliklarni dalada uchratish mumkin (**chittigul, tugmachagul**).



Rasmlarni nomlang.



[CH] tovushi ishtirok etgan yana qanday buyumlarni bilasiz?
(Chana, chang'i, chelak ...)

Bu she'r qaysi qush haqida?

Men qushchaman kichkina.
Tillarim chuchukkina.
Olachipor qanotim,
Bilsangiz ... otim.





Rasmlarni nomlang.



[CH] tovushini chigirtka, chuvalchang so'zlarida to'g'ri talaffuz qiling. Yana qanday hasharotlarni bilasiz?

[CH] tovushi bilan boshlanadigan so'zlarni yozing:

(chumoli, chivin, chuvalchang, chigirtka).



Ushbu misralar bilan boshlanuvchi qo'shiqni eslang.

Archa, archa, jon archa,
Yaproqlaring ninacha.
Atrofingda aylanib,
Qo'shiq aytadi barcha.





Misralardan [CH] tovushi bor so'zlarni ajrating.



Rasmlarni nomlang va quyidagi so'zlar ishtirokida gap tuzing.

Yozuvchi, sotuvchi, karnaychi, surnaychi, chelak, qaychi, chiroq



Rasmlarni kuzating va gap tuzing.





Maqollarni o'qing. [CH] tovushi ishtirokidagi so'zlarni aniqlang.

Do'stlik sinovda chiniqadi.
* * *

Do'stlik barcha boylikdan afzal.
* * *

Do'st – do'stning tayanchi.
* * *


Birlashgan kuch yengilmas.



Topishmoqni toping va o'rtoqlarningizga aytинг.



Yozda ham, qishda, bir xil kiyimdi:
Qishin, yozin yashnaydi.



Toyim bor kishnamaydi,
Yozning kuni ishlamaydi.

Besh og'a-ini ko'rpati bir,
Xonasi har xil.



So'zlarning shartli belgisi bo'yicha topishmoqlar javobini toping va daftaringizga yozing. Qaysi topishmoqlarning javobida [CH] tovushi ishtirok etgan?

Namuna:



Suhbati shirin do'stim,
Turgani bilim do'stim.



Ikki ajib qulog'i bor,
Biri so'zlar, biri tinglar.



G'uv-g'uv etar,
Qorni to'ysa, yumalab ketar.

Beli xipcha qora ot,
Tog'ga chiqsa, tolmaydi,
To'lqin bo'lsa, botmaydi.



[CH]) tovushini talaffuz qiling.



Maqollar

Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.

* * *

Ilm – aql chirog'i.

* * *

Chaqirsa, ishdan qochma,
Ruxsatsiz eshik ochma.

She'rni yod oling.

BOYCHECHAK

U ham ko'klam elchisi,
Chakkangga taq, chakkangga.
Kumush tongda ochildi,
Chiroy qo'shib o'lkamga.

U ochildi tong chog'ida
Erka chechak, oy chechak.
Boychechak deb atadilar,
Gullar ichra kelinchak.






Tez aytishni aniq va ravon takrorlang.


Karimga berdim toychoq,
U olavermadı har choq,
Toychog'imni kim olsa,
Men u bilan chin o'rtoq.



Charxchi charxlar,
Qaychi yarqirar.



Chumchuqcha chirqillaydi,
Charchamoqni bilmaydi.



Chamanda, chamanda,
Chirmanda chaldim.



Hikoyani o'qing va gapirib bering. [CH] tovushli so'zlarni aniq talaffuz eting.

BAHOR

Bahor keldi. Bog'larda gullar ochildi. Osmonda qushlar uchib kela boshladi. Yerda esa chumolilar o'rmaladi. Ariqlarda suvlar shildirab oqdi. Zumrad degan jamalak sochli qiz bog'ga kirdi. Charos bir quchoq chuchmoma, lolaqizg'aldoqlarni olib, bog'dan chiqib ketdi.


[CH] tovushli bo'g'lnlarni va so'zlarni aniq talaffuz qiling.

CHA-CHA-CHA-CHAP
CHO-CHO-CHO-CHOY
CHI-CHI-CHI-CHIROQ
CHO'-CHO'-CHO'-CHO'YAN
CHU-CHU-CHU-CHUMOLI
O'CH-O'CH-O'CH-KO'CH
OCH-OCH-OCH-SOCH
UCH-UCH-UCH-KUCH

chapak	chayla	chevar	choynak
charos	chashma	chelak	qaldirg'och
archa	chaqmoq	sichqon	to'g'nag'ich
ko'cha	ko'chat	chivin	saqich

[CH] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

[R] TOVUSHI TALAFFUZIDA NUTQ A'ZOLARINING HOLATI



Lablar biroz ochiq, harakatsiz bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan, ammo tegmagan holatda. Til uchi yuqori tanglay tomon ko'tariladi va til uchida biroz churqcha paydo bo'ladi. Shu chuqurchadan chiqqan havo oqimi til uchini titratib o'tadi va titroq tovush hosil qiladi. Tilning orqa qismi pasaygan holatda bo'ladi. Ovoz paychalari jipslashib titraydi va chiqayotgan tovush oqimi kuchli bo'ladi.

She'rni o'qing.

ALI VA HARFLAR

Bizning Ali xo'p chaqqon,
Ko'pdir o'yinchoqlari.
Lekin so'rasang ismin,
Der Ali o'rniga Ari.

O'rtoqlari bo'lar hayron,
Ari degan nom bormi?
«Arra» kerak bo'lsa unga,
Doim so'rар «alla»ni.

Ali ustidan doim,
Do'stlari kulib yurar.
Bundan xafa Alivoy,
Endi u nima qilar.

Unga yordamga bir kun,
Keldi logoped opa.
Mashqlarni bajarar,
Takrorlab Ali shunda.

Qo'llar har bir harfni,
O'z o'rnida Alivoy.
So'zlar, gaplar chiroyli,
«Ari» bo'ldi «Alivoy».

[R] tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar

[R] tovushini bir necha marta bo'g'lnlarda talaffuz qiling.

Ra-ra-ra-rang	Ar-ar-ar-arra
Ro-ro-ro-rom	Or-or-or-bemor
Ru-ru-ru-rizo	Ir-ir-ir-tomir
Ru-ru-ru-ruchka	ur-ur-ur-tur
Ro'-ro'-ro'-ro'mol	o'r-o'r-o'r-sho'r

[R] tovushini so'zlarda to'g'ri talaffuz qiling:

ravon	mard	anor	kamar
rayhon	marjon	anjir	kaptar
radio	arra	bemor	ko'mir
ruchka	arqon	daftar	nilufar
rubob	qarmoq	gavhar	daraxtzor
ruxsat	darvoza	nur	bug'doyzor

Quyidagi gaplarni o'qing.

Qishda kunlar qisqaradi.
Anvar rom yasadi.
To'rtko'z uyni qo'riqlaydi.
Shaharda tramvay, metro yuradi.
Daftar, ruchka – o'quv quroli.
Kuz oylari: sentabr, oktabr, noyabr.
Qish oylari: dekabr, yanvar, fevral.
21-martda Navro'z bayrami bo'ladi.



Maqollar

Daraxt bir yerda ko'karadi.

* * *

Qo'rqqanga qo'sha ko'rinishdi.

Daryo suvini bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.

* * *

Ish desa – ayyor,
Osh desa, tayyor.

* * *

Bahorgi harakat – kuzgi barakat.



Topishmoqlar



Qat-qat ko'ylagi bor,
Tugmasi yo'q.



Xo'ppa semiz, bir tuki yo'q.

Ham nordon, ham shirinman,
Po'stimda yashirinman.
Ichim to'la g'ij-g'ij don,
Ko'rsang qolasan hayron.
Ajratib xonalarim,
To'kmay ye donalarim.



«Qur-qur» etar yozda,
To'yib uxlар ayozda.



Tez aytishlar

Qiziq, qizil chiziq chizdik.

Turg'un piyozni to'g'ri to'g'raydimi,
Tursun piyozni to'g'ri to'g'raydimi?

(R) tovushini to'g'ri talaffuz qilib, she'rni ifodali o'qing.

Tursunboy Adashboev

SUMALAK

Boychechak nish urib
To turguncha o'rnidan,
Bahor qishni tarnovga
Osib qo'ydi burnidan.



NASIBANING OLMASI

Nasibanining olmasi,
Tushib ketdi ariqqa.
Tutqich bermay o'ynaydi,
O'xshab oltin baliqqa.
Sodiqjon ko'rib qolib,
Olmani ushlab berdi.
Rahmat aytib Nasiba,
Yarmini tishlab berdi.



Unlidan so'ng [R] tovushini, so'ng aksini talaffuz qiling.

A-A-AR-RA

O-O-OR-RO

U-U-UR-RU

I-I-IR-RI

R-R-RA-AR-RA

R-R-RO-OR-RO

R-R-RU-UR-RU

R-R-RI-IR-RI



Rasmlarni nomlang, so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.




[R] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Rayhon, darcha, kamar, bemor, sariq, tariq, marjon, rohat, ruxsat, qarmoq, barmoq, surnay.

[R] tovushi so'zning boshida, o'rtasida va oxirida kelgan narsa yoki buyumlar nomini ayting (rasm, taroq, kamar).




Rasmda qaysi kasb ustalari tasvirlangan. Siz yana qaysi kasb larni bilasiz?





Rasmlarni nomlang. (R) tovushini to'g'ri talaffuz qiling.



[R] tovushi ishtirok etgan parrandalar rasmini nomlang.



[R] tovushi o'rnini aniqlang.

[R] tovushi ishtirok etgan oziq-ovqat nomini ayting.




[R] tovushi o'rnini aniqlang.

Quyida berilgan qaysi so‘z katakka to‘g‘ri keladi?

--	--	--	--	--


Shakar, guruch.

Qaysi rasm [R] tovushi bilan yakunlanadi?



Rasmlarni nomlang. [R] tovushi o‘rnini aniqlang.





 Rasmlarning nomini aytishda [R] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.



Qaysi rasmlar ma'nosi bilan bir-biriga o'xshamaydi.

[R] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Rasm, archa, arqon, bayroq, kamar, karam, atir, o'qir, g'irrom, rahmat, surat, metr, raqam.

[R] tovushi so'zning boshida, o'rtasida va oxirida kelgan narsa yoki buyumlar nomini ayting.

Tovushlarni ovoz ohangi orqali aniqlang (**parta–parda, tor–dor**).



So'zlarni o'qing. [R] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Raketa, taroq, dastro'mol, daftar, ruchka, varaq, atirgul, xo'roz, arqon, kemiruvchi.

Idish-tovoqlarga nimalar kiradi?

Kiyim-kechaklarga-chi?

[R] tovushi ishtirok etgan kiyimlarni va idish-tovoqlarni ikki ustunga yozing.

O'zingizni tekshiring: qo'lqop, kurtka, paqircha, kapgir, sharf.

[R] tovushi o'rnnini aniqlang.



Darvoza, rubob so'zlari ishtirokida gap tuzing. Rubob so'zida [R] tovushi so'zning qayerida kelyapti?



[R] tovushi bor bo'lgan transport turlari nomini ayting.



O'zingizni tekshiring: metro, tramvay, traktor.



Rasmlarni nomlang. [R] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.





Rasmlarni nomlang.



Rubob, dutor, kursi, arra so'zlari ishtirokida gap tuzing. Bu gaplarda qancha so'z bo'lsa, shuncha marta qarsak chaling.



[R] tovushli hayvon rasmlarini nomlang.




So'zlarni bo'g'inlab aytинг. [R] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.



Rasmlarni nomlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.





Topishmoqlarni toping.

Chimchilaydi yuzingni,
Yashnatadi ko'zingni
Ignasin sanchib olar,
Burning qizarib qolar.



Sahroda kuya-kuya,
Yo'lbosar qirqta tuyu.



Talaffuzda bir-biriga o'xshash, lekin ma'nosi har xil bo'lgan juft so'zlarni ayting.

Tor-dor, temir-ko'mir, daftar-gavhar, atir-patir, anjir-zanjir,
hur-nur.

O'zingizni tekshiring. [R] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.

Archa
Ayyor


Sigir
Kapgir

Ravshan
Rassom

Tor
Nur



Rasmdagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.



Bir bo'g'inli [R] tovushi bor so'zlarni ayting. Unda nechta unli tovush bor?

Ikki bo'g'inli so'zlarni ayting. [R] tovushidan so'ng O,A,U unlilari keladigan so'zlar ro'yxatini tuzing (rohat, ravon, rayhon, ravshan, rubob, ruxsat, ruchka).

Bo'sh kataklarga kerakli tovushlarni qo'ying.

B E M O

N U

A Y H O N

So'zlarni tinglang va [R] tovushi so'zning qayerida (boshida, o'tasida, oxirida) kelayotganligini aniqlang.

Rassom, rediska, marjon, qarmoq, darcha, tramvay, daftar, gavhar, kaptar, kamtar.

Bu jadvalga qaysi so'zlar to'g'ri keladi

R	I	I
---	---	---

	R	I	I
--	---	---	---

			R
--	--	--	---

O'zingizni tekshiring. Rom, rost, qarmoq, argon, Damir, parranda.

She'rni ifodali o'qing.

[R] tovushini talaffuz qiling.

BAHOR

Keldi bahor, gul bahor,
Erib bitdi oppoq qor,
Uchib keldi qushlarjon,
Daraxtlar taqdi marjon.
Suvlar oqar shildirab,
Yulduz boqar miltirab
Chumolilar yayrashar
Sho'x bulbullar sayrashar.



Tez aytishlarni aniq, ravshan va tez talaffuz qiling.

*

Norning nordon anori narida.

Qirg'ovul qir yoqdamas, qirg'oqda.

O'tkir o'tkir o'roqda o't o'rdi.

Erkin ertagi ekin ekishni ertaga ertalab eplaydi.


Rasmga qarab, ranjidi ko'zim
Rostini aysam, rassomi o'zim.

[L] TOVUSHI TALAFFUZIDA NUTQ A'ZOLARINING HOLATI

[L] tovushi sonor, sirg'aluvchi, til oldi undosh tovushdir. [L] tovushini talaffuz qilishda til uchi yuqori tanglayga qattiq tegadi va biroz zarb bilan pastga tushadi.

Tilning o'rta qismi yoy shakliga kiradi. Tilning orqa qismi esa biroz yuqoriga ko'tariladi. Tanglay pardasi yuqoriga ko'tarilganligi uchun havo oqimi burunga o'ta olmaydi.

Talaffuz vaqtida ba'zan [L] tovushi hosil bo'lmasligi, ba'zan esa bu tovush boshqa tovushlar bilan almashishi mumkin.



[L] tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar

[L] tovushli bo'g'inlar va so'zlarni aniq talaffuz eting.

LA-LA-LA-LAGAN
LO-LO-LO-LOLA
LU-LU-LU-LUG'AT
LE-LE-LE-LENTA
LO'-LO'-LO'-LO'LI

AL-AL-AL-ALBOM
OL-OL-OL-OLMA
UL-UL-UL-BULBUL
EL-EL-EL-BEL
O'L-O'L-O'L-CHO'L

loyiha	stol	pilla
latta	stul	tilla
lavlagi	savol	g'alla
gul	Komil	salla
mo'l	bulut	go'zal
mol	buloq	fasl
el	qo'lqop	asal

Quyidagi gaplarni o'qing.

Har xil gullar ochildi. Bulbul yoqimli sayraydi. Qalam bilan yozamiz. Kamol – odobli bola.



Rasmlarni nomlang. [L] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.







Qaysi so'zlar [L] tovushi bilan boshlanyapti, qaysi so'zlarda [L] tovushi so'zning o'rtaida eshitilyapti?



Rasmlarni nomlang.



O'ylab ko'ring-chi, bulardan qaysilari jonli, qaysilari jonsiz?

[L] tovushi ishtirok etgan jonli va jonsiz narsalarga yana misollar ayting.

Lola, lagan, latta, lampa, lavlagi, loviya, pilla, tilla, g'alla, salla, fasl, go'zal, asal.

Quyidagi savollarga javob bering.

Qaysi gullarning nomida

[L] tovushi bor.

Qaysi transportning nomida

[L] tovushi bor.

Qaysi daraxtlarning nomida

[L] tovushi bor.

Qaysi uy jihozlarining nomida

[L] tovushi bor.

Qaysi hayvonlarning nomida

[L] tovushi bor.

Qaysi qushlarning nomida


[L] tovushi bor.

Tekshirish uchun so'zlar: vertolyot, olma, olcha, gilos, yo'l-bars, arslon, tulki, atirgul, lola, piyola, lagan, laylak, qaldirg'och, bulbul.



Rasmlarni nomlang.





Bu so'zlar necha bo'g'indan iborat ekanligini aniqlang.


Gul, qa-lam, qush, ol-ma-xon, gi-los, ka-ram, bul-bul, sar-tarosh.

Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

[L] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.



Rasmlarni nomlang.



[L] tovushli so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling. Rasmlardagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Bu so'zlarda [L] tovushi qayerda (boshida, o'rtasida, oxirida) kelgan?



Maqollar

Ko'p o'yla, oz so'zla.

* * *

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

* * *


Aql aqldan quvvat oladi.

* * *

Aqli ish – qanotli qush.



Rasmlarni nomlang. [L] tovushini to'g'ri talaffuz qiling.





Tez aytishlar

So'zim amal qilyaptimi,
So'zim alam qilyaptimi.

Oqil oq olma oldi,
Oq olmani Oqil oldi.

Olma shoxida olmaxon,
Olmani olma, olmaxon.

(R) (L) tovushlari talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar

She'r va ertaklar mazmunini so'zlab bering.

Rauf Tolib

BOBOJONIM SO'ZLARI

Bobom der: – Nima eksa,
O'shani olar dehqon.
Bug'doy o'rnida arpa
Unib chiqibdi qachon?
Aldadim deb birovni
Bo'lma, o'zingcha mamnun.
Seni-chi boshqa odam,
Aldab ketadi bir kun...
Masxara qilib kimki,
Birov ustidan kulta,
Uning ahvoliga ham
Kulguchi bordir bilsa.
Hayot ustozdir bilsang,
Yashamoqqa o'rgatar.
Sen nimani xor qilsang,
O'sha qadrin ko'rsatar:
Umid bilan har kishi
Yashar ekan hayotda
Yashxi yo yomon ishi
Qaytar unga, albatta.





GILOS

Qip-qizil ikki gilos,
Biri biriga o'rtoq.
Do'st bo'lishib butun yoz,
O'sishibdi qo'shaloq.
Nafisa der: – Bunisi
Ukam ekan, bu o'zim.
Ikkalamiz bittadan
Yeymiz bandidan uzib...
Qarasa, qo'sh gilosning
Ajralmaydi o'tasi:
Bittasini yey desa,
Xafa bo'lar boshqasi!
Ikkovini yey desa,
Xafa bo'lar ukasi...

JUMBOQ

Ayting qani, bolalar,
Bu jumboqni kim bilar:
Qorbobo bilan qorqiz,
Yil bo'yi ne ish qilar?

Bosh qotirar bolalar,
Gulchehra bo'lsa kular:
«Qorbobo bilan qorqiz,
Yozimizni qish qilar...»



QO'SHNI BOLALAR

Bir-biridan ahil, inoq
 Bizning qo'shni bolalar.
 Maktabga ham tongdan birga
 Qo'l ushlashib borarlar.

Kech kirganda keng hovlida
 Qizir ular o'yini.
 Bir ovozdan yangratishar
 Shunda do'stlik kuyini.



Navbat bilan so'ng bilganin
 Keng davrada aytishar.
 Har kech xursand, gurra-gurra
 Uy-uyiga qaytishar.

OYIM UYDA BO'LALAR

Oyim uyda bo'lalar,
 Uyimiz to'lib ketar.
 Dadam ishdan kelsalar,
 Yana to'y bo'lib ketar.

Bo'lmasalar ularning
 O'rnlari yo'qlanar.
 Hammamiz bir burchakda,
 Shodligimiz yo'qolar.



GULLAR

– Hoy gulbeor, gulbeor,
Qancha o'rtoqlaring bor?
– Rayhon, binafsha, lola,
Chuchmoma va gulnora,
Tugmachagul, boychechak,
Qizil, pushti, gul pechak .
Oq nastarin, gulxayri –
Bog'da o'sadi bari.
Yoqimli hid sochadi,
Bahri dilni ochadi.



Tolib Yo'ldosh

SOAT NEGA CHIQILLAR?



Soat nega chiqillar?
Chiqillab urib turar.
Siz va bizday tinimsiz
Yuragi urib turar.
U hamisha mehnatda,
Hech tinib turolmaydi.
Tiriklikning nafasin
Mehnatsiz surolmaydi.

Turob To'la

QUSHLARJON

Pir-pir uchar qushlarjon,
Vaqtin xushlar qushlarjon.
Oqshom chog'i bizlarday,
Uyga shoshar qushlarjon.



IKKI ECHKI

(*Rus xalq ertagi*)

Ikki qaysar echki bo'lgan ekan.

Kunlardan bir kuni ikkalasi anhor ustidagi yakkacho'p ko'prik ustida uchrashib qolishibdi.

Ikkalasidan biri yo'l berishi kerak ekan.

– Yo'l ber! – debdi birinchisi.

– Sen yo'l ber! – debdi ikkinchisi.

– Seni deb orqamga qaytamanmi? – debdi birinchisi.

– Bo'lmasa, seni deb men orqamga qaytamanmi? – debdi ikkinchisi.



Shunday qilib ikkalasi janjallashib suzishib ketishibdi.

Keyin birinchi echki uch qadam, ikkinchi echki uch qadam orqaga qaytib birdan bir-birlariga hamla qilishibdi. Shoxlari shoxlariga tegib chaqmoq chaqqandek bo'libdi.

«Qars» etgan ovoz dalani tutibdi.

Ikki echki yumaloq yostiq bo'lib, anhorga ag'darilib ketibdi.

FIL BILAN XO'ROZ

(O'zbek xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan dakang xo'roz bilan fil bor ekan. Kunlardan bir kuni dakang xo'roz filning oldiga kelib, qattiq qichqiribdi:

– Qu-qu-qu-quv!

Fil hayron bo'libdi: «muncha chiranadi bu». Xo'roz hamma yoqni titib, cho'qib don terib yeyaveribdi. Yana:

– Qu-qu-qu, qu-v-v! – qichqiraveribdi.

Uning ovozini eshitib, «bir o'xshatay buni» deb, «Kim ko'p ovqat yeydi, senmi yo menmi?» so'rabdi shunda fil.

Xo'roz:

– Men ko'p yeyman! – debdi chirani.

Ular kim ko'p ovqat yeyishdan garov bog'lashibdi.

Fil juda ko'p ovqat yebdi, to'yib uyquga ketibdi.

Uyg'onib qarasa, xo'roz hali ham donlab yurganmish, fil yana ovqat yeya boshlabdi. Ovqatni yeb bo'lib, yana uyquga ketibdi. Bir vaqt uyg'onib qarasa, kech bo'lib qolibdi. Xo'roz bo'lsa, haliyam donlab yurganmish.

– Qu-qu-qu, – dermish xo'roz.

– U to'ymas ekan-ku, – debdi fil hayron bo'lib, – bunaqa jonivorni sira ko'rgan emasman.

Xo'roz garovda yutgach, o'zicha: «Filning ustiga chiqib bir tomosha qilay», deb o'ylabdi.



U pir etib uchib, filning ustiga chiqib olibdi. Fil:

– Voydod, meni yeb qo'yadi! – deb qichqiribdi-da, shu qochganicha o'rmonga kirib ketibdi.

Xo'roz bo'lsa, uning orqasidan qarab qanotlarini tapillatib:

– «Qu-qu-qu-quv. Men zo'rman», – deb qichqiribdi.

SHOLG'OM

(*Rus xalq ertagi*)

Bobo sholg'om ekibdi. «Sholg'om, sholg'om, qanddek bo'lib o's. Sholg'om, sholg'om, katta bo'ilb o's», debdi chol.

Sholg'om qanddek shirin, kattakon bo'lib o'sibdi. Bobo sholg'omni yerdan tortib olgani boribdi. Tortib-tortib ko'ribdi, lekin tortib ololmabdi.



Bobo buvini chaqiribdi.
Buvi boboni,
Bobo sholg'omni

tortib-tortib ko'rishibdi, lekin tortib olisholmabdi.

Buvi nabirasini chaqiribdi.
Nabirasi buvini,
Buvi boboni,
Bobo sholg'omni

tortishibdi-tortishibdi, lekin tortib olisholmabdi. Nabirasi kuchugini chaqiribdi.

Kuchuk nabirani,
Nabirasi buvini,
Buvi boboni,
Bobo sholg'omni

tortishibdi-tortishibdi, lekin tortib olisholmabdi. Kuchuk mushukni chaqiribdi

Mushuk kuchukni,
Kuchuk nabirani,
Nabirasi buvini,
Buvi boboni,
Bobo sholg'omni

tortishibdi-tortishibdi, lekin tortib olisholmabdi. Mushuk sichqonni chaqiribdi.

Sichqon mushukni,
Mushuk kuchukni,
Kuchuk nabirani,
Nabirasi buvini,
Buvi boboni,
Bobo sholg'omni

tortishibdi-tortishibdi. Oxiri tortib olishibdi.

Quddus Muhammadiy

BO'TALOQ

Tuya bola – bo'taloq,
Chopib otar shataloq.
Shirmoy kulcha dumaloq.
Bo'taloqjon, bo'taloq,
Hadeb otma shataloq.
Ba'zi bir yer qatqaloq,
Yerdan yema shapaloq.



Qambar Ota JO'JACHA

Chipor jo'jacha,
Chopar jo'jacha.
Don-dunni izlab
Topar jo'jacha.
To'pidan ajrab,
Adashgan zamon,
Chiv-chivlab yelar
Onasi tomon.



**Sirg‘aluvchi va sonor tovushlarni to‘g‘ri talaffuz
qilish va nutqda mustahkamlash bo‘yicha
mustaqil bajarish uchun topshiriqlar**

Berilgan rasmlar asosida bayramlarimiz haqida so‘zlab bering.



NAVRO'Z BAYRAMI



To'lqin

BOLAJONIM

Shoda-shoda shu'lalardan
Terib olgan bolamsan.
Ko'zim nuri, dil qo'rini
Berib olgan bolamsan.
Butun olam senga ishonch –
Umid bilan qaraydi.

Quyosh o'zi har tong turib,
Sochlarini taraydi.
Men beshigin tebratganda,
Sen olamni tebratding.
Men seni yaratgan chog'
Sen ham meni yaratding.

O'sib ulg'ay, sog', omon,
Davri davron seniki,
Cho'ng pahlavon, qahramon bo'l,
Gulgun zamon seniki.
Bolam, bolam, jonim bolam,
Mangu jahonim, bolam!...

XOTIRA VA QADRLASH KUNI



FASLLAR

Har bir faslda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi.



Rasmlarga qarab so'zlab bering.



Boshqotirmalar

Rasmda berilgan sabzavot va mevalar asosida boshqotir-madagi kataklarni to'ldiring.

Bo'yiga:



1



10



4



6



3



5



7



11

Eniga:




12



13



8



2



3



9



Rasmlarga qarab kataklarni to'ldiring.



--	--	--	--



--	--	--	--



--	--	--	--

--	--	--	--



--	--	--	--




--	--	--	--



--	--	--	--	--

Quyidagi rasmda rassom qanday xatoga yo'l qo'ygan?



BARMOQLARNING AHAMIYATI

Olimlarning kuzatishlariga qaraganda, barmoqlar harakati bola rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Qo'l va barmoqlar harakati bola nutqining rivojlanishida ham muhim o'rinn tutadi.

Mashqlar bolalar tomonidan oson bajariladi va ularning diqqati, tafakkuri, xotirasining rivojlanishiga yordam beradi. Qo'l barmoqlarining harakatchanligini va egiluvchanligini oshirib, bo'lg'usi o'quvchilarda yozish ko'nikmalari hosil qilinadi.

Qo'l va barmoqlar harakati nutqning aniq va ravonligiga uzviy bog'liqdir. Shu sababli nutqning aniq va ravonligi barmoqlarning harakatiga bog'liq.

«TO'G'RI TALAFFUZGA O'RGATISH VA NUTQ O'STIRISH» O'QUV-USLUBIY QO'LLANMASI YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR

Har bir ota-onan o'z farzandining jismonan sog'lom, aqlan yetuk bo'lib, ijtimoiy hayotda o'z o'rnnini egallaydigan komil inson bo'lib kamol topishini orzu qiladi. Bola dastlab ota-onasi bilan muomala qilish orqali so'zlashuv nutqini egallab, so'ng atrofdagilar bilan muloqotda bo'la boshlaydi.

O'zini o'rabi turgan muhit bilan tanisha boradi. O'z ona tilini o'zlashtirish orqali so'zni, iboralarni o'rganadi, nutqi shakllanadi. Fikrlash, sezish, eshitish, ko'rish va nutq a'zolarining me'yorida ekanligi uning to'g'ri rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Nutq – kishilar orasidagi aloqa quroli, milliy boylik hamda ta'lim-tarbiyaning qudratli vositasidir. Shu bois har bir inson o'z fikrini to'liq, ifodali bayon etishga o'rganishi zarur. Bola ilk yoshida kattalarga taqlid qilish orqali tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi.

Oilada tarbiyaning erta boshlanishi bola nutqining to'g'ri rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola 4 yoshida hamma tovushlarni bir-biridan farqlay bilishi va ularni to'g'ri talaffuz etishi kerak. Mana shu yoshda tovushlar talaffuzining shakllanish davri tugaydi. 5–6 yoshli bola to'liq gap tuzish, rasmga qarab hikoya qilish, gapirib berish, she'r, topishmoqlarni yoddan aytib berish, ko'rgan narsalarini uzoq vaqt xotirasida saqlab qolish qobiliyatiga ega bo'ladi. 6 yoshli bolada nutqiy kamchiliklar deyarli kuza-tilmaydi. Nutqning me'yorda rivojlanayotganini bolaning og'zaki nutqini eshitish orqali aniqlash mumkin. Masalan:

- Qani ayt-chi, sening isming nima?
- Mening ismim Sitora.
- Sen necha yoshdasan.
- Men 6 yoshdaman.
- Qani, bu rasmga qarab, ko'rganlaringizni gapirib bering-chi? va h.k.

6–7 yoshgacha bo'lgan davrda ayrim ota-onalar bola nutqini rivojlantirish bosqichlariga befarq qaraydilar. Ko'pincha bola bir narsani aytmoqchi bo'lib, ovoz chiqarsa, uning harakatidan nima demoqchiligin bilishga, uni gapirtirmasdan bajarishga harakat qiladilar yoki yosh bolalar og'ziga so'rg'ich berib, ovutib, xalaqit bermasligini istaydilar. Buning natijasida bolaning nutq a'zolari noto'g'ri rivojlanib boradi.

Ba'zi ota-onalar esa bola hayajon bilan biron narsani gapirmoqchi bo'lsa, uni to'xtatib, «ko'p gapirma» deb, fikrini bo'ladilar. Bola bilan kam gaplashish, noto'g'ri nutqiy muloqot natijasida nutq yaxshi rivojlanmaydi va bola maktabda o'qish jarayonida ko'p qiyinchiliklarga duch keladi. O'z fikrini, o'qiganlarini yaxshi bayon qila olmaydi. Bu holat, albatta, oquvchining maktab das-turini o'zlashtirmasligiga sabab bo'ladi.

Bunday holatning oldini olish uchun ota-onan bolaning tovush, so'zlarni qanday talaffuz qilayotganiga ahamiyat berib borishi kerak. Bordi-yu, bola nutqida yoki talaffuzida murakkab nuqsonlar mavjud bo'lsa, unda darhol mutaxassislarga murojaat qilib, ularning maslahatlariga ko'ra ish tutish lozim. Buning uchun bola nutqini ilk yoshdan boshlab to'g'ri tarbiyalash, rivojlanish bosqichlariga jiddiy e'tibor berish talab etiladi.

Maktabgacha yoshdagি bolalar bilan har xil mavzuda ko'proq suhbatlar o'tkazish, og'zaki nutqini rivojlantirish, so'z boyligini oshirib borish tavsiya etiladi.

Bola nutqida uchraydigan ayrim kamchiliklar

Bola nutqida uchraydigan kamchiliklar, asosan, maktabgacha yoshdagи bolalarda uchraydi. Bunda birgina yoki bir necha tovushni noto'g'ri talaffuz etish, so'zni buzib aytish, ayrim tovushlarni ayta olmaslik kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Mana shunday kamchiliklarning o'z vaqtida oldi olinmasa, ular yillar davomida mustahkamlanib, nutqning noto'g'ri rivojlanishiga, hatto gung, soqov bo'lib qolishlikkacha olib keladi. Bu nuqsonlarni bartaraf etish uchun bola nutqidagi rivojlanish davrining bosqichlarini va nutqiy kamchiligidini bilish kerak.

Bola nutqining noto'g'ri rivojlanishi sabablari turlicha. Birinchidan, oilada bola nutqining rivojlanishiga e'tibor bermaslik, erkalatib noto'g'ri nutqqa taqlid qilish yoki bolaning biron-bir narsadan qattiq qo'rqliishi, bir qator yuqumli kasalliklar bilan kasallanishi oqibatida umumiyl rivojlanishning sustlashishi, rivojlanish bosqichlarining kechikishiga olib keladi. Bola nutqida har xil nuqsonlar uchraydi:

- nutqning umumiyligi rivojlanmaganligi;
- eshitish qobiliyatining buzilganligi natijasida nutqning rivojlanmaganligi;
- tovush talaffuzi nuqsonlari;
- ko'rish qobiliyatining pastligi yoki umuman ko'zi ojizlik;
- markaziy asab tizimining jarohatlanishi natijasida nutqning sust rivojlanishi.

Hayotda bola nutqida tez-tez uchraydigan nuqson tovush talaffuzidagi funksional nuqson bo'lib, ayrim holatda, tutilib gapiruvchi bolalarda uchraydi. Bunday bolalar, odatda, umumta'lim muassasalarida ta'lim oladilar.

Ularning o'z tengdoshlaridan orqada qolmasligi uchun oilada bola nutqini to'g'ri tarbiyalashga va tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, eshitish qobiliyatini o'stirishga oid mashqlarni erta, ilk yoshidan boshlash kerak.

Markaziy asab tizimining jarohatlanishi tufayli jag' paychalarining tortilishi, til, tishlar va jag'dagi nuqsonlar ham bola nutqining rivojlanishida o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Nutqiylar aqliy qobiliyati past bolalarda ko'proq namoyon bo'ladi. Bu nuqsonlarning o'z vaqtida oldi olinmasa, keyinchalik bola mакtabda o'qishi jarayonida katta qiyinchiliklarga duch kelib, to'g'ri talaffuzga o'rgatish uzoq vaqtni talab qiladi.

Tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish yoki bir-biriga almashishi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin: randa-anda, deraza-delaza, bering-beling, qizil-tizil yoki chizil, qalam-talam, yumshoq-umshoq, kitob-itob va h.k.

Bola nutqidagi nuqsonlarga ota-onada e'tibor berib, pedagogik-korreksion ishni o'z vaqtida olib borishlari shart. Aks holda, maktabda o'qish jarayonida farzandlari tovushlarni og'zaki qanday

noto'g'ri talaffuz etishsa, yozishda ham shunday kamchiliklarga yo'l qo'yadilar.

Bola nutqidagi kamchiliklar mакtabga borganida, ayniqsa, sezilarli bo'ladi. Uning dars samaradorligini o'zlashtirish sifati ham past bo'ladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar: tili chuchuk, du-duqlanuvchi yoki nutqi to'liq rivojlanmay qolgan bo'lib, o'z o'rtoqlari bilan o'ynashga, boshqalarga aralashishga ancha qiynaladi, bu esa uning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Boladagi nutqiy kamchiliklar va talaffuzning tekshirilishi quyidagi tovushlarni ayttirish orqali amalga oshiriladi:

S – soat, rasm, gilos.

Sh – sham, qoshiq, osh.

L – limon, lola, bol.

Y – yo'l, ayiq, uy.

R – randa, arra, bir.

G – gilos, tanga, barg.

K – kitob, mакtab, koptok.

Ch – choynak, kuchuk, qaldirg'och.

Bolaning eshitish qobiliyatini tekshirish va rivojlantirishga oid turli xil mashqlar, o'yinlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Tutilib gapirish va uni bartaraf etish

Nutq buzilishining ko'p uchraydigan murakkab ko'rinishlaridan biri tutilib gapirishdir. Bu nutqda ayrim bo'g'in va tovushlarning qayta-qayta takrorlanishi yoki to'xtab qolish natijasida sodir bo'ladi. Ko'pchilik hollarda tutilib gapirish bog'cha yoshidagi bolalarda

uchraydi. Tutilib gapiresh oiladagi kelishmovchiliklar, qo'rqtish, jazolash natijasida ham yuzaga keladi.

Nutqning shakllanish jarayoni bolalardagi o'ziga xos murakkab holat bo'lib, hamma bolalarda har xil kechadi. Bu hollarda bolalarga ko'proq kitob o'qib berish, hikoya aytib berish, she'rlar o'rgatib borish lozim.

Duduqlangan bolada birinchi galda, artikulatsion mashqlar bajariladi. Talaffuz uchun ishlataladigan gaplar qisqa bo'lishi kerak. Masalan:

- Isming nima?
- Gulnora.
- Qaerda yashaysan?
- Toshkentda.

Tutilib gapiradigan bolalarga uy sharoitida foydali o'yinlardan biri gapirmasdan harakat bilan bajariladigan o'yinlardir (kubik, plastilin, qum, qurilish jihozlari). Bunda bola ko'proq o'ynab, kamroq gapirishi lozim. Bolaning duduqlanayotganligini aytib, yuziga solish mutlaqo mumkin emas. Bolaga unday emas, bunday so'zlash kerak deb ko'rsatish, noto'g'ri so'zlayotganini juda ehtiyyotkorlik bilan tushuntirish lozim. Duduqlanishni bartaraf etish choralaridan asosiylari kundalik tartibga to'g'ri rioya etishdir.

Turli mashqlar olib borilganidan so'ng mazmunli rasmlardan sodda gaplar tuzib beriladi: Bolalar gulga suv quydi. Qizcha koptok oldi. Bolalar cho'milyaptilar va h.k. Avval sodda so'zlar, so'ng asta-sekin murakkab so'zlar beriladi. Ularni bola kattalarga taqlid qilib takrorlaydi. Bola duduqlanmasdan kattalar so'zini takrorlashga o'rgangandan keyin hikoya va savol-javoblarga o'tiladi. Bolaga mazmunli rasm ko'rsatib, unga qarab kichikroq hikoya tuzib berish so'raladi. Tutilib gapirishni bartaraf etish ishi

ota-onasidan katta sabr-toqat, chidam va bardosh talab etadi. Mashg'ulotlar uchun alohida soat tashkil etish, to'g'ri, shoshmasdan so'zlashga o'rgatish ijobiy natija beradi.

Duduqlanish maktab yoshigacha to'g'irlanmasa, bola o'z kamchiligini sezib, o'z fikrini aniq tushuntira olmayotganidan ezilib, noxush holatlarga duchor bo'ladi. Shu sababli ota-onalar farzandlarining duduqlanishini sezganlaridan keyin tezda uni bartaraf etish choralarini ko'rishlari kerak. Bolada o'z-o'ziga ishonch, hamma narsa o'ziga bog'liqligi hissini tarbiyalash kerak. Shoshmasdan gapirishni o'rgatish, bir nafas chiqarganda ikki sonli raqamlarni, ko'p sonli sanoq sonlarni sanashni mashq qildirish kerak.

Yoddan she'r o'qish ravon nutq ko'nikmalarini hosil qilishga ijobiy ta'sir qiladi. She'riy nutq mashqidan keyin savol-javob mashqlari o'tkaziladi. Buning uchun dastlab savollar oddiy so'zlardan, bola uchun ma'lum bo'lgan mavzu asosida tuzilib, astasekin murakkablashib boradi. Matnlar o'qitiladi, ko'rgan rasmlari asosida so'zlab berishga o'rgatiladi. Tutilib gapiruvchilar uchun eng qiyini so'zlashuv nutqidir. Bola o'ziga osonroq bo'lishi uchun qiynalayotgan so'z o'rniga boshqasini ishlatishga urinadi. Bunga yo'l qo'ymaslik kerak.

Aks holda, gapiruvchi to'g'ri nutq o'rganish o'rniga o'zlari o'rangan nutq doirasiga tushib qoladilar. Shuning uchun mashg'ulotlar avtobusda, do'konda, bozorda, mehmonda, mакtabda, bog'chada va shunga o'xshash sharoitlarni keltirgan holda o'tkaziladi. Tutilib gapirishdan to'g'ri, me'yordagi nutqqa o'tish jarayoni asta-sekinlik bilan boradi.

Oiladagi qulay sharoit, to'g'ri kun tartibi bola o'sishining, rivojlanishi va o'z ona tilini o'zlashtirishining asosiy omillaridir.

MUNDARIJA

Kirish	3
Tushuntirish xati	3
Artikulatsion mashqlar	5
Quvnoq tilcha haqida ertak	6
Til uchun harakatsiz mashqlar	6
Til uchun harakatli mashqlar	7
Lab uchun mashqlar	8
(S) tovushini to'g'ri shakllantirish uchun kompleks mashqlar	9
(S) tovushi talaffuzida nutq a'zolarining holati	10
Yakka tartibda ishlash uchun nutq materiallari	10
(S) tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar	23
(Z) tovushining to'g'ri talaffuzi	27
(Z) tovushini to'g'ri shakllantirish uchun kompleks mashqlar	28
(Z) tovushi talaffuzida nutq a'zolarining holati	29
Sirg'aluvchi (S) va (Z) tovushlarini differensiatsiyalashga oid mashqlar	38
Sirg'aluvchi (S) va (Z) tovushlarini differensiatsiyalashga doir amaliy mashg'ulotlar	39
(J) va (SH) tovushlari talaffuzida nutq a'zolarining holati	42
Yakka tartibda ishlash uchun nutq materiallari	43
(J) tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar	43
(SH) tovushi talaffuzida nutq a'zolari holati	48
Yakka tartibda ishlash uchun nutq materiallari	51

(SH) tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar.....	51
(SH) tovushi talaffuzini mustahkamlash.....	58
(CH) tovushi talaffuzida nutq a'zolarining holati	65
(R) tovushi talaffuzida nutq a'zolarining holati	78
(R) tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar	79
(L) tovushi talaffuzida nutq a'zolarining holati.....	97
(L) tovushi talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar.....	97
(R) (L) tovushlari talaffuzini mustahkamlashga oid mashqlar...	104
Sirg'aluvchi va sonor tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va nutqda mustahkamlash bo'yicha mustaqil bajarish uchun topshiriglar	114
Barmoqlarning ahamiyati	122
«To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish» o'quv-uslubiy qo'llanmasi yuzasidan metodik tavsiyalar.....	122

RISQINISSO SHOMAHMUDOVA

**TO'G'RI TALAFFUZGA O'RGATISH
VA NUTQ O'STIRISH**

Yordamchi muktablar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

Muharrir *I. Usmonov*

Badiiy muharrir *Sh. Odilov*

Texnik muharrir *F. Samadov*

Musahhih *M. Ibrohimova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.

2013-yil 1-iyulda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 84x108^{1/16}.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Shartli bosma tabog'i 13,86.
Nashr tabog'i 8,25. 1317 nusxa. Buyurtma № 22.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Sharhnomha № 17–2013.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, Shayxontohur ko'chasi, 86-uy.

Bepul. Maktab jamg'armasiga kiritilgan.

7800 eifel.

Sh55 **SHOMAHMUDOVA R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish.** Yordamchi maktablar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. (To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri). T.: «ILM ZIYO», 2013. –132b.

UO'K 372.46
KBK 74.3

ISBN 978-9943-16-136-8